



OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

ILYOS ISMOILOV

NAVOIYSHUNOSLIK
(“Hayrat ul-abror” misolida)

O'quv qo'llanma

BAYOZ
Toshkent – 2026



UO'K 821.512.133.09

KBK 83.3(5O')

I-81

Ismoilov, I. Navoiyshunoslik (“Hayrat ul-abror” misolida) [Matn] / I. Ismoilov; mas’ul muharrir Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Bayoz, 2026. – 336 b.

Mazkur “Navoiyshunoslik” (“Hayrat ul-abror” misolida) o‘quv qo‘llanmasi amaldagi o‘quv reja va shu reja asosidagi o‘quv dasturiga muvofiq yaratilgan. Unda “Navoiyshunoslik” fani doirasida o‘rganish ko‘zda tutilgan mavzular, xususan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni va unga oid masalalar batafsil yoritilgan. O‘zbek navoiyshunosligi erishgan eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan samarali foydalanilgan. O‘quv qo‘llanma 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, undan 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti, 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti (kechki) ta’lim yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda ham foydalanish mumkin.

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, akademik

Taqrizchilar:

Boqijon To‘xliyev,
filologiya fanlari doktori, professor
Karomat Mullaxo‘jayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 13-maydagi 4005-sonli guvohtonmasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8453-8-3

© Ilyos Ismoilov, 2026

© “Bayoz”, 2026



MUNDARIJA

KIRISH	4
I. Abror hayrati	6
II. Basmala sharhi	16
III. Tavhid hamd talqini	31
IV. To'rt munojot sharhi	36
V. Payg'ambar adabiyoti namunalari	46
VI. Xamsanavislar yodiga bag'ishlangan boblar	60
VII. So'z va ijod ta'rifi	74
VIII. Sulton Husayn madhi	82
IX. Ko'ngil ta'rifi va hayrati	86
X. Xojogoniya vasfi	104
XI. "Hayrat ul-abror" dostoni asosiy qismi tahlili	112
XI.1. <i>Iymon bobi tahlili</i>	112
XI.2. <i>Islom bobi tahlili</i>	126
XI.3. <i>Sultonlar ta'rifi</i>	138
XI.4. <i>Soxta va haqiqiy darveshlar muqoyasasi</i>	148
XI.5. <i>Karam vasfi va baxllik tanqidi</i>	158
XI.6. <i>Odob, tavoze va hayo vasfi</i>	167
XI.7. <i>Qanoat sharafi va tama zarari</i>	178
XI.8. <i>Vafo ta'rifida</i>	185
XI.9. <i>Ishq va husn ta'rifida</i>	192
XI.10. <i>Rostlik ta'rifi va egrilik tanqidi</i>	208
XI.11. <i>Olimlik sharofati va johillik kasofati</i>	216
XI.12. <i>Qalam va kotiblar xususida</i>	227
XI.13. <i>Bulutdek naf yetkazuvchi insonlar to'g'risida</i>	237
XI.14. <i>Falak va dunyodan shikoyat</i>	248
XI.15. <i>Mayxo'rlik mazammati va tavba ta'rifi</i>	260
XI.16. <i>Xunasasifat kibarlar va jonfido mardlar ta'rifi</i>	269
XI.17. <i>Umr mohiyati hamda yigitlik va qarilik hikmati</i>	277
XI.18. <i>Fursatni g'animat bilmoq va hayotni qadrlamoq xususida</i>	288
XI.19. <i>Xuroson va Hirot tasviri</i>	299
XI.20. <i>Shahzoda Badiuzzamonga nasihatlar</i>	309
XII. "Hayrat ul-abror" ning xotimasi	322



KIRISH

Alisher Navoiyning o‘lmas asarlaridan biri “Hayrat ul-abror” dostonidir. Asar 1483-yili aruzning sari’ bahrida, masnaviy shaklida yozilgan. Umumiy hajmi 3988 bayt bo‘lib, debocha 21 bobdan, asosiy qismi 20 maqolatdan va xotima 2 bobdan – jami 43 bobdan iborat. Muallifning qayd etishicha, “Hayrat ul-abror” Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”, Xusrav Dehlaviyning “Matla ul-anvor” hamda Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostonlari ta’sirida yaratilgan. Ushbu muhtasham doston buyuk mutafakkir “Xamsa”sining ilk dostoni bo‘lib, unda yuksak axloqiy-didaktik qarashlar, tasavvufiy-ma’rifiy talqinlar va adabiy-estetik qarashlar ifodalangan.

“Hayrat ul-abror”ning mazmun-mohiyati Alisher Navoiyning o‘zi va zamondoshlari, izdoshlari, shuningdek, A.Fitrat, O.Sharafiddinov, S.Mutallibov, T.Jalolov, S.Ayniy, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Ogah Sirri Lavand, Y.Bertels, N.Mallayev, P.Shamsiyev, B.Valixo‘jayev, A.Hayitmetov, V.Derjavin, A.Qayumov, A.Rustamov, S.Xidirnazarov, M.Muhiddinov, A.Erkinov, M.Imomnazarov, K.Mullaxo‘jayeva, D.Yusupova, U.Jo‘raqulov, N.Sharipova, A.A‘zam, D.Nazarova, A.Malik kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Doston nihoyatda qimmatli adabiy manba ekani, unda insoniy kamolot, axloqni sayqallash masalalari badiiy tasvirlangani ochib berilgan.

Mana shunday durdona asarni bugungi ta’lim tizimida chuqur o‘rgatish har qochongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Ayni maqsadni nazarda tutib oliy ta’lim tizimining 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishidagi “Navoiyshunoslik” fani doirasida o‘qitiladigan ikkita: “Navoiyshunoslik – I” (Alisher Navoiy hayoti va ijodi) hamda “Navoiyshunoslik – II” (Navoiy asarlarini sharhlab



o‘qitish) modullari doirasida “Hayrat ul-abror” dostoni bilan bevosita aloqador o‘nga yaqin mavzu belgilab qo‘yilgan. Qo‘llanma ayni mana shu mavzularni chuqurlashtirgan holda va atroflicha o‘rganish imkonini beradi. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarini sharhlab o‘rganish masalasida juda qo‘l keladi. Ta’kidlash kerakki, hozirgacha “Navoiyshunoslik” fani doirasidagi muayyan mavzularni ilmiy asosda chuqur ochib berishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv adabiyotlari yaratilgan emas.

Qo‘llanmani tayyorlashda fan dasturida belgilangan “Hayrat ul-abror” dostoni bilan bog‘liq barcha masalalar qamrab olindi. Har bir mavzu me’yoriy hujjatlar va metodika talablariga muvofiq mavzu, reja, tayanch tushunchalar, ma’ruzalar matni, savol va topshiriqlar, adabiyotlar ro‘yxati bilan ta’minlandi. Xususan, qo‘llanmaning savol va topshiriqlar tizimi zamonaviy yondashuvlar asosida – ijodiy xarakterda ishlab chiqildi. Konseptual savollar, mantiqiy topshiriqlar va muammoli keyslar bilan boyitildi. Vizual ifodaga katta e’tibor qaratildi. Ilovada glossariy ham berildi. Keng ommalashtirish va foydalanishni qulaylashtirish maqsadida har bir mavzu taqdimot ko‘rinishida ham havol etildi.



I MAVZU




ABROR HAYRATI

Reja:

1. Navoiy dostoniga nima uchun “Hayrat ul-abror” deb nom qo‘ygan?
2. Abror tushunchasi va uning talqinlari.
3. Hayrat tushunchasi va uning talqinlari.
4. Doston nomi – muallif ijodiy konsepsiyasining in’ikosi.

Tayanch tushunchalar:

Alisher Navoiy, abror, hayrat, ijodiy niyat, irfoniy mohiyat, tariqi abror





Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni bilan o‘zining buyuk “Xamsa”sini boshladi. Asar 1483-yil masnaviy yo‘lida yozilgan bo‘lib, 3988 baytdan iborat. Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”iga javoban yozilgan, lekin Navoiy bu asarini yozishda Xusrav Dehlaviyning “Matla ul-anvor” va Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” asarlaridan ham ta’sirlangan. Dostonning muqaddimasi 21 bob, asosiy qismi 20 bob (20 maqolat va 20 hikoyatni o‘z ichiga olgan), xotimasi esa 2 bob. Asar jami 43 bobdan tashkil topgan.

“Hayrat ul-abror” chuqur mazmunga ega bo‘lib, uning mohiyatini ochishni nomini sharhlashdan boshlash lozim. Chunki Navoiy doston nomidagi *hayrat* va *abror* so‘zlarini shunchaki qo‘llamagan, ular aniq maqsad bilan tanlab olingan bo‘lib, dostonda shu toifadagi shaxslar axloqi, atvori va kechinmalari badiiy talqin etilishiga jiddiy ishora qiladi.

Mavjud tadqiqotlarda asar nomi turlicha: “Yaxshi kishilarning hayratlanishi”, “Yaxshilar hayrati” tarzida izohlanadi. Maqsud Shayxzoda asar nomini “To‘g‘ri kishilarning taajjublanishi”¹ deb ko‘rsatadi. “Yaxshi kishilar” yoki “To‘g‘ri kishilar” sifati umuman olganda “abror” atamasiga muvofiq, ammo u o‘ta umumiy mazmunga ega bo‘lib, “abror” istilohi xoslangan va Navoiy nazarda tutgan maxsus ma‘noni aniq ifoda etmaydi. Asar nomining “Abrorlar hayrati” tarzidagi ifodasida ham “-lar” qo‘shimchasi ortiqcha, chunki abror so‘zining o‘zi ko‘plik shaklida. Doston nomining o‘zbek tiliga mos ifodasi, aslida, “Abror hayrati” bo‘lib, bundagi har ikki so‘z maxsus termin bo‘lgani bois alohida izohlanishi zarur.

“Abror” (ابرار) arabcha “barrun” yoki “birrun” (بر) fe‘lidan hosil bo‘lgan bo‘lib, mazkur fe‘l quyidagi lug‘aviy ma‘nolarni bildiradi: 1) izzat (hurmat) qiladigan bo‘lmoq, odobli bo‘lmoq, mehribon, oliyjanob bo‘lmoq; 2) dindor, taqvodor, xudojo‘y, mo‘min

1 Шайхзода Мақсуд. Ғазал мулкининг султони. Асарлар. 4-том. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 125 – 126.



bo'lmoq; 3) bo'ysunmoq, itoat etmoq; 4) (qasamni, va'dani) bajarmoq, ustidan chiqmoq, unga rioya etmoq; (nimagadir) sodiq, ishonchli, vafodor bo'lmoq.

Yodda tuting

“Abror” so‘zi “barrun” fe‘lidan hosil bo‘lgan va ko‘plik shaklidagi so‘z hisoblanadi. Ya‘ni “abror” lug‘aviy jihatdan – odoblilar, oliyjanoblar, taqvodorlar, itoat qiluvchilar, (va‘dasiga) sodiqlar², shuningdek, yaxshilar, ezgu xulq egalari kabi ma‘nolarni anglatadi.

“Hayrat” (حيرت) ham arabcha “hayratun” (حيرة) fe‘lidan hosil bo‘lgan so‘z bo‘lib, bu fe‘l “hayron bo‘lmoq, tong qolmoq, tushunmay hayron bo‘lib turmoq; qiyin vaziyatga tushib qolmoq”³ ma‘nolarini bildiradi. Undan hosil bo‘lgan “hayrat” so‘zi esa *lol bo‘lmoq, o‘ziga nima bo‘lganini tushunmay qolish, taajjubda qolmoq, hayronlik* ma‘nolarini anglatadi.

Qur‘oni karimda ham “abror” so‘zi ayni ma‘noda kelgan. Jumladan, Infitor surasining 13-oyatida abror so‘zi “yaxshilar, taqvodorlar” ma‘nosida zikr etilgan: “Albatta, yaxshilar (mo‘minlar) ne‘mat (jannat)dadirlar”⁴. Ayrim hadislarda ham abror tushunchasi uchraydi. Sulamiydan keltirishlaricha, rasulalloh alayhissalom bir hadislarida “Peshin namozi – abror namozidir” deganlar⁵. Bular mazkur ikki so‘zning lug‘aviy ma‘nolari bo‘lib, “Hayrat ul-abror” nomini an‘anaviy tarzda “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” tarzida izohlash aynan lug‘aviy ma‘noga tayanganini ko‘rsatadi. Biroq, yuqorida qayd

2 Ан-на‘им-ул-кабир. Арабча – ўзбекча луғат. Тузувчилар: О.Носиров ва бошқалар. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2014. – Б. 41 – 42.

3 Ан-на‘им-ул-кабир. Арабча – ўзбекча луғат. Тузувчилар: О.Носиров ва бошқалар. – Наманган: “Наманган” нашриёти, 2014. – Б. 168.

4 Qur‘oni karim. Infitor surasi, 13-oyat. Abdulaziz Mansur tarjiması. – B. 437.

5 Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 1. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 40.



etganimizdek, doston nomidagi ikki so‘z tasavvuf ta’limotida alohida istiloh bo‘lib, so‘zlarning aynan istilohiy ma’nolari doston mohiyatini tushunishga yo‘l ochadi.

“Abror” atamasi so‘fiylar istilohida bir necha ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. “Hujviriylar aytadi: “Ular ham hal qiluvchi, ham tuguvchidirlar va Haq jalla jalallohu dargohining muhofizidirlar. [Ulardan] uch yuz nafarini ahyor deydilar, qirq nafarini abdol deydilar, yetti nafarini esa abror deydilar”⁶. Sulamiyning Yahyo Muozdan keltirishicha, “Dunyo kishilariga g‘ulomlar va kanizlar xizmat qiladilar, oxirat kishilariga esa abror va ahror”⁷. Manbalarda qayd etilishicha, abror ko‘proq oxirat g‘amini yeyuvchi, oxirat tadorigini ko‘ruvchi shaxslar, shu bois ular maqom nuqtayi nazaridan muqarrablar (Allohning do‘stlari, Allohga yaqin kishilar)ga nisbatan pastroq ko‘rilgan va “Abrorning yaxshiliklari – muqarrablarning yomonliklaridir”⁸ (Aziziddin Nasafiy) deyilgan.

Shayx Najmiddin Kubro “Usuli ashara”da kamolotga eltuvchi yo‘llar haqida bunday yozadi: “Ollonga eltuvchi yo‘llarning adadi maxluqotning nafaslari qadar behisob. Biz izohlamoqchi bo‘lgan yo‘l esa bu yo‘llarning eng oydini va eng mukammalidir. Yuqorida aytilganidek, bu yo‘llar ko‘p bo‘lsa-da, ularning hammasini uch asosiy guruhga birlashtira olamiz.

1. **Tariqi axyor:** ibodat va amali solih sohiblarining yo‘li. Bu yo‘lga kiruvchi soliklar ro‘za, namoz, Qur‘on qiroati, haj qilish va shunga o‘xshash zohiriy ibodatlar bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘ladilar. Bu yo‘l tariqi axyor deya ataladi. Bunday yo‘l va usul bilan uzoq vaqtdan keyin ruhni kamol toptirib, Haqqa yetishganlar bag‘oyat ozdir.

6 Guharin Sayyid Sodiqlar. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 1. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). –S. 40.

7 Guharin Sayyid Sodiqlar. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 1. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). –S. 40.

8 Guharin Sayyid Sodiqlar. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 1. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). –S. 40.



2. **Tariqi abror:** mujohada va riyozat sohiblarining yo‘li. Bu yo‘l soliklari esa go‘zal fe‘l-atvorga ega bo‘lish, ko‘ngilni tazkiya, qalbni tasfiya⁹, ya‘ni ko‘ngilni musaffolashtirish va botinini obod qilish, ma‘mur etish uchun g‘ayrat ko‘rsatuvchi kishilardir. Tariqi abror deya ma‘lum bo‘lgan mazkur yo‘l bilan Haqqa qovushganlar avvalgi yo‘lga qaraganda ko‘proq bo‘lsa hamki, nodir hisoblanadi.

3. **Tariqi shuttur:** bu ishq, jazba va muhabbat sohiblarining yo‘li. Va u ulug‘ Mavloga sayr-u sayohat qiluvchilarning tariqatidir. Bu yo‘lga suluk qilganlarning yo‘l boshidayoq erishgan martabasi boshqalarning suluk hayotlari so‘ngida erishgan martabasidan ko‘p karra yuksakdir”¹⁰.

Muhim

Buyuk murshid Najmiddin Kubro tasnifdagi ikkinchi yo‘l – “tariqi abror” (abror yo‘li) biz o‘rganayotgan “abror” tushunchasining aniq so‘fiyona izohini o‘zida mujassam qilgan. Ya‘ni abror kishilar ibodatdan ortib muntazam mujohada (nafsga qarshi kurash) qilishadi, shu yo‘lda riyozat chekishni odat qilishadi. Ular go‘zal xulq-atvor va qalb pokligiga intiladilar. Bunday axloqdagi kishilar maqom va Haqqa yaqinlik bobida axyorlardan ustun, lekin shutturlardan pastroq hisoblanadi. Abrorlik yo‘lidan yurib Haqqa yetganlar u qadar ko‘p bo‘lmasa-da, uchrab turadi. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni nomida abror atamasini qo‘llash orqali ayni mana shu toifa va ularning a‘molini nazarda tutadi.

Doston nomidagi “hayrat” so‘zi ham tasavvuf ta‘limotida

9 Tazkiya va tasfiya – tazkiya: poklash, oqlashdir; tasfiya esa poklanish natijasida dilni ravshan toptirish.

10 Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт (Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош). – Т.: Моварауннахр, 2004. – Б. 32 – 81.



maxsus istiloh hisoblanadi. “Hayrat – ...so‘fiylar istilohida taammul, huzur va tafakkur chog‘ida dilga kutilmagan holning yuzlanishi bo‘lib, orif so‘fiyni taammul va tafakkur (davomiyligi)dan to‘sadi. ...Bir orif ma‘rifat nima degan savolga javoban dedi: tahayyurdir, keyin ittisol, keyin iftiqor va so‘ngra hayrat”¹¹. Aniqroq qilib aytganda “Hayrat – orifning diliga tafakkur tufayli yuzlanuvchi nogahoniy holat bo‘lib, shu zahoti uni mutahayyir qiladi.

Mushohada va ma‘rifat to‘foniga tashlaydi, natijada (u) boshqa hamma narsani unutadi. Hayratning asli futuri sirdir. ...Tahayyur mahbub visoliga bo‘lgan umid va iztirob oralig‘ida orifning diliga nozil bo‘ladi”¹².

Zunnun Misriy aytadi: “Haqning zoti borasidagi ilm jahldir va ma‘rifatning haqiqati borasidagi so‘z hayratdir... ”¹³. Boyazid Bistomiy deydi: “Yillar bu dargohda muqim bo‘ldim, oqibatda ko‘rganim hayrat bo‘ldi va bizga nasib bo‘lganlardan hayratdan o‘zgasi qolmadi”. Abusaid Xarroz aytadi: “Ma‘rifat ahlining avvalgi maqomi iftiqor (bechoralik) tufayli yetishadigan tahayyurdir, keyingisi ittisol (yetishish) tufayli keladigan sururdir, keyingisi intiboh (ogohlik) tufayli yetishadigan fanodir, oxirgisi esa intizor (muntazirlik) tufayli yetishadigan baqodir”¹⁴.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da ham hayrat maqomi haqida maxsus yozadi. Dostonda hayrat vodiysi tasviri tavhid ta‘rifidan keyin, faqr-u fano vodiysidan oldin keladi. Shoir bu faslda hayratni tavhid maqomini egallagandan keyin solikka yuzlanuvchi holat sifatida ta‘riflaydi. Kishi hayrat maqomida

11 Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 4. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 321.

12 Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 4. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 321.

13 Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 4. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 323.

14 Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 4. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 323.



bungacha kasb qilgan barcha narsasini, hatto, o‘zini ham unutadi:

Harne kasb aylab edi tavhid aro,
Vodiyi tafrid ila tajrid aro.
Barchasi ondin bo‘lur mahv-u adam,
Yo‘qki hosil qilg‘olikim o‘zi ham¹⁵.

Hayrat oshiqning tilini gung-u lol etib, aqlini zoyil, hushini poymol qiladi. Hayrat uni barcha narsadan xorij qiladi, chunki u avvallari istagan narsasiga erishadi va erishganining ta‘sirida qoladi. Oshiq erishgan darajasi va undan tuygan “visol huzuri” tufayli kecha va kunduzni, o‘ngi va tushini farqlay olmaydigan holga tushadi:

Foniy erkanni-yu boqiylik‘ni ham,
Mast erkanni-yu soqiylik‘ni ham¹⁶.

Hayrat oshiqni shu ko‘yga soladiki, oshiqning avvalgi mushohadakorligi va qat‘iyatidan asar ham qolmaydi, hatto, oshiq o‘zining oshiqligini biladi, ammo kimga oshiqligini aniq ayta olmay tong qoladi:

Derki oshiq erkonimni tonglomon¹⁷,
Kimga erkanni-yu lekin onglamon¹⁸.

Muxtasar aytganda, “hayrat – solikni nochorlik va sargashtalikka soluvchi, asosan taammul va tafakkur vaqtida yuzlanuvchi nogohoniy holatdir. Goho shunday bo‘ladiki, ishtiyoq va talab avjida dilni maqsadga yetishishdan to‘sadi, solik tavhid va tafakkur maqomida shu darajaga yetadiki, fikri va aqli haqiqat darkidan butunlay ojiz qoladi, mushohadalari tufayli hayratga tushadi hamda qattiq sargashtalik, lol qolishga

15 Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томлик. 12-т. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 237.

16 Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томлик. 12-т. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 237.

17 Tonglamoq – ajablanmoq, tong qolmoq, hayron bo‘lmoq.

18 Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томлик. 12-т. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 238.



duchor bo‘ladi”¹⁹. Ayrim so‘fiylar hayratni solik taammuli va tafakkurining natijasi deb ham bilishadi. Agar bu holatning Navoiy talqinida tavhiddan keyin yuzlanishi e‘tiborga olinsa, uning darajasi naqadar yuksak ekanligi oydinlashadi.

Yuqorida “Hayrat ul-abror” dostoni nomidagi har ikki so‘zning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma‘nolarini ko‘rib chiqdik. Navoiy bu nomni o‘z asari uchun maxsus tanlab olgani nazarda tutilsa, u mazkur so‘zlarning istilohiy ma‘nolarini nazarda tutgani oydinlashadi.

Yodda tuting

“Hayrat ul-abror” degan nom *abrorning, ya’ni go‘zal xulq-atvoriga va qalb pokligiga riyozat bilan intiluvchi kishilarning haqiqat sirlari, mohiyat kashfidan tuygan hayrati* ma‘nosini anglatadi.

Navoiyning ushbu ijodiy niyati doston debochasidanoq ochiq seziladi, jumladan, ko‘ngilning uch hayrati haqidagi maxsus fasllar buning yorqin isboti bo‘la oladi.

Alisher Navoiyning bu dostonida yozganlari, bir tomondan, go‘zal axloq va qalb pokligiga intiluvchi toifaning mohiyat kashfidan tuygan hayratlarini badiiy ifodalasa, boshqa tarafdin, kishilarni abrordek bo‘lishga undaydi, Haqning asrorini, olamning mohiyatini idrok etishga chorlaydi. Shu bois ham dostonning asosiy qismini tashkil etuvchi XX bobda abror toifasi egallashi va saqlanishi lozim bo‘lgan xulq-atvor to‘g‘risida so‘z boradi. Ulug‘ shoir abror va hayrat atamallari anglatgan ma‘nolarni poetik talqin etish orqali insoniyatni ezgulikka, ko‘ngil pokligiga, botin obodligiga targ‘ib etadi. Bu boradagi nazariy qarashlarini ajoyib hikoyatlar orqali badiiy dalillaydi.

19 Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 4. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 323 – 324.



Savol va topshiriqlar

I. Konseptual savollar

1. Aziziddin Nasafiyning “*Abrorning yaxshiliklari – muqarrablarning yomonliklaridir*” degan fikrini qanday izohlaysiz? Nima uchun bir darajadagi eng oliy fazilat yuqori darajadagi kishi uchun nuqson hisoblanishi mumkin?
2. Odatda bilim hayronlikni yo‘qotadi (narsaning mohiyatini bilgan sari hayrat kamayadi). Ammo Navoiy talqinida hayrat – tavhid (haqiqatni anglash)dan keyin keladi. Nima uchun haqiqatga yaqinlashgan sari hayrat kamaymaydi, balki ortib boradi?
3. Najmiddin Kubro tasnifidagi “tariqi abror” (riyozat yo‘li) va “tariqi shutter” (ishq yo‘li) o‘rtasidagi konseptual farq nimada? Navoiy nima uchun o‘z dostonini “Hayrat ush-shutter” emas, aynan “Hayrat ul-abror” deb nomladi?
4. “Abror” tushunchasidagi zohiriy (odob, oliyanoblik) va botiniy (qalb musaffoligi, mujohada) jihatlar qanday bog‘langan? Navoiyning konsepsiyasida komil inson faqat jamiyat uchun foydali kishimi yoki faqat xudojo‘y mo‘minmi?
5. Nima uchun Navoiy sevgi sarguzashtlari (Farhod va Shirin, Layli va Majnun) haqida yozishdan oldin aynan “Hayrat ul-abror” (falsafiy-axloqiy poydevor) ni qo‘ydi? Bu tartib muallifning dunyoqarashidagi qanday iyerarxiyadan dalolat beradi?

II. Tahliliy topshiriqlar

1. Suqrotning “*Men hech narsa bilmasligimni bilaman*” degan fikri bilan Boyazid Bistomiyning “*Oqibatda ko‘rganim hayrat bo‘ldi*” degan so‘zlari o‘rtasidagi umumiylik va farqni toping. G‘arb falsafasidagi “skeptizm” va Sharq



tasavvufdagi “hayrat” ning mohiyati birmi?

2. Najmiddin Kubro ta’riflagan “tariqi abror” ning uchta asosiy ustunini (riyozat, go’zal xulq, qalb tafsiyasi) bugungi kun ziyolisi hayotiga tatbiq qilib ko’ring. Zamonaviy dunyoda “abror” bo’lish qanday ko’rinishda bo’ladi?
3. Matndagi “*Derki oshiq erkonimni tonglomon /Kimga erkonni-yu lekin onglamon*” baytini orifona hayratning eng yuksak nuqtasi sifatida izohlang. Oshiqning o’zini oshiq deb bilib, ma’shuqasini (Haqni) tanimay qolishi qanday falsafiy holat? (Bu yerda “tanish” deganda aqliy bilish nazarda tutiladimi yoki boshqa narsa?)

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. Т.7. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Назарова Д. Абдурахмон Жомийнинг “Субҳат ул-аброр” ва Алишер Навоийнинг “Ҳайрат ул-аброр” дostonларининг қиёсий таҳлили. Ф.ф.б.ф.д. (PhD) дис.. – Самарқанд, 2022.
3. Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 4. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.).
4. Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 1. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.).
5. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томлик. 12-т. – Тошкент: Фан, 1996.
6. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт (Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош). – Т.: Моварауннахр, 2004.
7. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. док-ри. дисс.. – Тошкент, 2017.
8. A’zam Abdulla. Abrorlar hayrati. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.



II MAVZU




BASMALA SHARHI

Reja:

1. “Hayrat ul-abror” ning basmala bob bilan boshlanish sabablari.
2. Navoiygacha bo‘lgan adabiyotda basmalaga oid tajribalar.
3. Basmala tasviri – harfiy san’atning go‘zal namunasi.
4. Basmalada xamsanavislik an’anasining ramziy talqini.

Tayanch tushunchalar:

Debocha, basmala, harfiy san’at, xamsanavislik, an’ana, ahli rad, ahli qabul





Alisher Navoiy o‘z “Xamsa”sini basmala bilan boshlaydi:
 Bismillohir-rahmonir-rahim,
 Rishtag‘a chekti necha durri yatim²⁰.

Ma‘nosi:

“Bismillahir rohmanir rohim” (oyati) bir qancha qimmatbaho durlarni ipga tizdi.

Shundan kelib chiqib navoiyshunoslikda “Xamsa”ning ilk bobini “basmala bobi” yoxud “Xamsa”ning basmala bobi” tarzida atash urf bo‘lgan.

Alisher Navoiy o‘z “Xamsa”sini bejiz bunday basmala bob va bayt bilan boshlagan emas. Bu holatni uch xil izohlash mumkin.

Birinchi, bu odobi ta’lif bilan bog‘liq. Islom ta’limotiga muvofiq muhim ishlarni “Bismillohir rohmanir rohim” jumlasini bilan boshlash joiz hisoblangan. Ma’lumki, Qur’oni karim “Yaratgan Robbing nomi bilan o‘qi” (Iqro bismi rabbika-l-laziy xalaqa) oyati bilan nozil bo‘la boshlagan. Muhammad alayhissalomga nozil bo‘lgan mazkur ilk oyatning ko‘rsatmasi va chorloviga muvofiq islomda, musulmonlar hayotida aksar va muhim amallarni Alloh nomining zikri bilan boshlash vojib hisoblanadi. Shu ko‘rsatmaga muvofiq Qur’onning birinchi surasi bo‘lgan “Fotiha” ham “Bismillahir rohmanir rohim” oyati bilan boshlanadi.

Bir nechta hadislarida ham basmalaning fazilatlarini ta’kidlangan. Jumladan, “Payg‘ambar alayhissalom o‘z hadislaridan birida: “E’tiborli har bir ish “Bismillah” bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir”, deganlar. Ya’ni uning barakasi bo‘lmaydi, oxiriga yetmaydi”²¹. “Vaki’ va Sa’labiy rohimahumulloh Ibni Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: “Kimki do‘zaxning Zaboniya farishtalari changalidan

20 Навоий А. Хамса. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Фан, 1958. – Б. 7.

21 Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Иккинчи нашр. 1-жуз. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 6.



omonda bo‘lmoqni hohlasi 19 ta harfdan iborat “Bismillahir rohmanir rohim”ni ko‘p o‘qisin. Alloh taolo “Bismillahir rohmanir rohiym”dagi har bir harfni har bir Zaboniya farishtaga qalqon qiladi”... Daylamiy roziyallohu anhu Ibni Mas’ud roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kimki “Bismillahir rohmanir rohim”ni o‘qisa, Alloh taolo uning har bir harfi uchun qirq ming hasanot yozadi, qirq ming yomonligini o‘chiradi, u uchun qirq ming darajot ato etadi”²².

Mana shunday ma’nolar asosida ushbu oyat – nafaqat Qur’onning, balki musulmon mintaqasi adabiyotining ham ochuvchi tabarruk jumlasiga aylangan. Mazkur jumla ulamolar o‘rtasida qisqa qilib “basmala” deb ham yuritiladi. Manbalarda uning sharaffi va serfazilat ekani, har bir ish maqsadga muvofiq yakunlanishi uchun shu jumla bilan boshlanishi zarurligi aytiladi. Mazkur taomilga ko‘ra, aksar musulmon ijodkorlar o‘zlarining muhim asarlarini ayni shu jumla ifodasidan boshlashni odat qilishgan.

Ikkinchidan, xamsanavislik an’anasida “Xamsa” tarkibidagi ilk dostonni shunday basmala bayt bilan boshlash bir an’ana edi. Navoiydan oldinroq shu mavzuda yozilgan dostonlar fotihasi mazkur fikrimizni tasdiqlaydi:

“Maxzan ul-asror”da:

Bismillohir rahmonir rahim,
Hast kalidi dari ganji hakim.

“Matla ul-anvor”da:

Bismillohir rahmonir rahim,
Xutbayi quds ast, balki qadim.

“Tuhfat ul-ahror”da:

Bismillohir rahmonir rahim,

22 Abduxoliqov M. “Bismillahir rohmanir rohim”ning fazilati. URL: <https://sammuslim.uz/oz/articles/bismillahir-rohmanir-rohimning-fazilati-1-maqola?print=on> (Murojaat sanasi: 28.12.2024)



Hast saloyi sarxoni karim.

Shuningdek, Navoiygacha bo‘lgan turkiy adabiyotda ham asarlarni basmala yoxud turkiy basmala bilan boshlash urf bo‘lgan. Ushbu an’anani turkiy adabiyotda birinchilardan bo‘lib Yusuf Xos Hojib boshlab bergan va u keyinchalik yanada rivojlantirilgan. Turkiy adabiyotning ilk namunasi bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” ning nasriy va she’riy debochalari, hamd bobi aynan Allohga sano aytish, uni yodga olish bilan boshlanadi. Qosimjon Sodiqovning qayd etishicha, “Qutadg‘u bilig” ning Hirot nusxasidagi hamd bobi turkiy basmala bilan boshlangan:

Bayat ati birla so‘zug bashladim,
To‘rutkan, igidgan, kechurgan idim.

Ma’nosi:

Xudoning oti bilan so‘zni boshladim,
Yaratgan, parvarishlagan, kechirgan Egamdir.

...yuqoridagi baytni an’anaviy basmalaning turkiy versiyasi, uning turkiylashgan shakli deyish mumkin”²³. Darhaqiqat, Yusuf Xos Hojib keltirgan bayt “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman)” jumlasini bilan ham mazmunan, ham leksik tarkibiga ko‘ra muvofiq keladi.

Uchinchidan, asarni bunday bayt bilan boshlash Navoiyning ijodiy konsepsiyasi – xamsanavislik an’anasiga munosabati bilan bog‘liq edi. Navoiyning bu boradagi asosiy yangiligi ham (salaflariga nisbatan) fotiha bayt va basmalani xamsa yozish an’anasi bilan bog‘lab yubora olganida namoyon bo‘ladi. Quyida bu holat qanday namoyon bo‘lishini tushuntirishga harakat qilamiz.

Alisher Navoiy “Xamsa” ning dastlabki bobida “Fotiha” surasining birinchi oyati bo‘lgan “Bismillohir rahmonir rohim” (بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ) xususida so‘zlab, uning harflarini **dur**ga, yozilishini **rishta**, **kamand**, **band**, **jon suvi oquvchi ariq**, **ilohiy xazinaning ajdahosiga** tashbih qiladi-da, so‘ngra

23 Sodiqov Q. Turkiy basmala / Yosh kuch. – 2019. – № 02. – B. 4 – 5.



bular majoz ekani, aslida, u **vahdat xazinasiga olib boruvchi yo‘l** ekani, uni bosib o‘tuvchilar taviq (maqsadga yetishish) nuqtayi nazaridan ahli rad (rad etilganlar) va ahli qabul (qabul qilinganlar)ga bo‘linishini aytadi. Oyatning arabiy ifodasiga tayanib, har bir harfini rad qilinganlar va qabul qilinganlar nuqtayi nazaridan kitobat san‘ati asosida badiiy sharhlab chiqadi.

1-jadval

Arabiy harflar	Ahli rad uchun	Ahli qabul uchun
ب	ibo va balo	bashoratning bos
س	nahangning orqasidagi arra(dek qanot)	salomatlik yo‘li zinasi
م	damidan o‘t sochuvchi ilon	Chashma
ل va ل ل ل	o‘tkir tig‘	sham‘ va “mulk Uningdir” oyatiga ishora
ح	nayzaning uchi	zafar bayrog‘i
ر	qiron soluvchi	jannat bog‘ining eshigi
ه	qullob (changak)	huviyat (mohiyat) jilvagohi
ن	yo(y) va o‘roq	“mim” bilan cheksiz minnat
ى	undov so‘z	“mim” bilan karam dengizi (“yam”)
”	toshlar yoxud kesik boshlar	uchqun; baqo duri
ن	tugun uzra tugun	“nun” bilan cheksiz minnat
ز (jazm)	zirh uzra zirh	ko‘ngil bo‘yniga tavq; sokinlik
س	shiddat, azob	chaqmoqtosh
ك =		ko‘mak

Kezi kelganda ahli rad va ahli qabul tushunchalarini ham izohlash lozim. Diniy nuqtayi nazardan ahli rad – do‘zax ahli, ahli qabul esa jannat ahlidir. Agar Navoiy bobda basmalani **vahdat xazinasiga olib boruvchi yo‘l**ga o‘xshatganidan kelib chiqilsa, ahli radni vahdat xazinasiga yetisha olmaganlar, ahli qabulni esa vahdat xazinasini qo‘lga kiritganlar deb izohlash



lozim bo‘ladi:

Yo‘qki erur maxzani vahdatqa yo‘l,
Yo‘lu ne yo‘l, asru yaqin yo‘ldur ul²⁴.

Darhaqiqat, Navoiy besh doston zimnida ilohiy muhabbat, tavhid g‘oyalarini kuyladi, so‘nggi dostonning oxiri buyuk Iskandarning baqoga rihlat etishi, vahdat hosil qilishi bilan yakunlangani ham ijodkor nazarda tutgan ulkan missiyaning, ijodiy konsepsiyaning o‘ziga xos yakuni bo‘lsa, ajabmas.

Navoiyning ushbu tasvirlarini qalbida tavhid bo‘lgan toifaning basmalani idrok etishi, sevib yod etishi va iymonsiz yoxud ko‘nglida tavhidi bo‘lmagan toifaning basmalani idrok eta olmasligi, u tufayli mashaqqatga tushishi haqida deb ham tushunish mumkin. Zero, qalbi va tafakkuri kushoyish topgan, kuchli iymon egalarigina basmalani, umuman, ilohiy oyatlarni huzur-halovat bilan tinglaydi, mohiyatini idrok etadi. Qalbi va qulog‘i muhrlangan toifa esa bu ilohiy oyat mazmunini anglashdan mosuvo, zavq-u huzuridan bebahra, shu bois bu toifa uchun basmala va Qur‘on uqubatdan, malollikdan o‘zga narsa emas. Navoiyning ahli qabul va ahli rad haqidagi tasvirlarini mana shu ma’noda ham tushunishga muayyan asoslar bor.

Aksar tadqiqotlarda ahli rad va ahli qabulni to‘g‘ridan to‘g‘ri diniy tushuncha – do‘zaxiylar va jannatiylar tarzida izohlash, shunday tushuntirish hollari uchraydi. Ammo masalaga bunday yondashilsa, “Xamsa” badiiy asar bo‘lsa, uning avvalida do‘zax ahli va jannat ahli haqida maxsus bob yozishning qanday mantig‘i bor, degan savol yuzaga kelishi tabiiy. Shuningdek, mazkur ikki tushuncha do‘zax ahli va jannat ahli tarzida izohlansa, basmala bob “Xamsa” ning badiiy mantig‘i va kompozitsiyasi bilan bog‘lanmay qoladi. Qolaversa, Navoiydek ulug‘ ijodkorning “Xamsa” kompozitsiyasiga tasodifiy bob kiritishini tasavvur qilish mushkul.

24 Навоий А. Ҳайрат ул-аброҳ. МАТ. 20 том. 7-т. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 12. (Keyingi misollar ham shu manbadan olinadi).



K.Mullaxo ‘jayevarning ta’kidlashicha, “Hayrat ul-abror” ning ilk bobidan boshlab butun “Xamsa”ga ishoralar mavjud²⁵. Agar ushbu qarashga tayanib basmala bobning matniga diqqat qilinsa, shoir oyatni turlicha tashbih qilar ekan oxirida uni **vahdat xazinasiga olib boruvchi yo‘lga** o‘xshatadi. Navoiy bu o‘rinda yo‘l deganda nimani nazarda tutgan? “Vahdat xazinasini yoki manzili” deganda nimani nazarda tutgan? Mana shu ikki savolga javob topish bobning va undagi obrazli tasvirlarning mohiyatini anglashga yo‘l ochadi. Nazarimizda, Navoiy basmala so‘ngida yuqoridagi savollar javobiga nozik ishora qilib ketgan:

Istabon, ey hasta Navoiy, navo,
Bo‘yla safarg‘a qilur ersang havo,
Yo‘l yomon-u yaxshisidin yema g‘am,
Bismilloh, degil-u qo‘yg‘il qadam²⁶.

Navoiy bu fikrlarni sof badiiy asar, “Xamsa” yozish arafasida – basmala bobning so‘ngida bayon qilmoqda, shu bois ushbu ikki bayt basmala bobning, avvalo, “Xamsa” yozish an‘anasi bilan aloqador ekanligini bildiradi. Chunki Navoiy “bo‘yla safar” deganda aynan “Xamsa” yozish jarayonini nazarda tutadi.

Navoiy basmalaning avvalida bu uzoq yo‘l oxir-oqibat vahdat xazinasiga olib borishini qayd etadi. Modomiki, “Bismillahir rohmanir rohim” jumlasini singari “Xamsa” yozish olis va mashaqqatli yo‘l ekan, Navoiy nazarda tutgan *vahdat manzili* – “Xamsa”ni muvaffaqiyatli yakunlash va salaf xamsanavislar e’tirofiga ezilish, ularning halqasiga qo‘shilish (vahdat) masalasi bilan aloqador bo‘lib chiqadi.

25 Муллахўжаева К. Сўзни жаҳон баҳрида дурдона бил... («Хайрат ул-аброр» муқаддимасига бир назар) / Бадийий уммон қатралари. – Тошкент: ВАҲОЗ, 2015. – Б. 22.

26 Навоий А. Хамса. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Фан, 1958. – Б. 10.



Muhim

Binobarin, bobdagi ikki asosiy tushuncha – ahli rad va ahli qabulni ham xamsanavislik an’anasi nuqtayi nazaridan izohlashga to’g’ri keladi. Ya’ni Navoiy yuqoridagi ikki baytda va umuman bobda “Xamsa” yozishni uzun va mashaqqatli yo’lga o’xshatib²⁷, bu yo’lni qat’ etishni istaganlar o’z irodalarining taqdir hukmiga muvofiq kelgan yoki kelmaganiga ko’ra rad etilganlar va qabul qilinganlar – “Xamsa” yoza olgan va “Xamsa” yoza olmaganlarga ajralgani, o’zining esa qay tomonda bo’lishini bila olmay, xavotir aralash “Bismilloh” deya yo’lga qadam qo’yayotganini obrazli ifodalab bergan. Bu safarning mohiyati va yakuni ijodkorning u orqali vahdat manzili – xamsanavis, masnaviynavis salafлари maqomiga ko’tarilishi bilan belgilanadi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Alisher Navoiy katta mehnat va sharaf bilan ulug’ muddaosiga yetishgan. “Saddi Iskandariy”ning xotimasi – xamsanavislik yo’lining yakunida salafлар arvohi bilan g’aybiy uchrashuv, ularning halqasiga qo’shilgani tasvirlangan lavha mazkur maqsadga – vahdat xazinasiga erishilganining ayni ifodasidir. Navoiy bu g’aybiy holatdan qayta hushiga kelgach, piriga ko’rgan narsalarini aytib bera olmaydi, shunda Jomiy “Tangrining hozir senga nasib etgan bu ehsoni boshqa kishilarga nasib etmadi, shu bois Tangrining tavfiqiga shukr qil” deydi. Navoiy Jomiy so’zlaridan so’ng shunday yozadi:

O’pub yerni, qo’y dum chu tashqori gom,
Degaysen: mening erdi olam tamom!

27 «Saddi Iskandariy»ning V bobida xamsanavislik yo’l, toshi itik, so’qmog’i bo’rtog’, chiqib bo’lmas ulkan tog’ga va har bir doston undagi bir oromgohga o’xshatiladi.



Manga “Xamsa” takmili bir yon edi,
Bu maqsud tahsili bir yon edi.
Ne til birla dey shukr Ma’buduma
Ki, yetkurdi oxir bu maqsuduma²⁸.

Navoiy o‘zi uchun “Xamsa”ni mukammal tugatish maqsadi bir yon bo‘lganini aytar ekan, “Bu maqsud tahsili bir yon edi” deya o‘z “Xamsa”sining salaflar tomonidan e’tirof etilishiga ishora qiladi. Ya’ni “bu maqsud tahsili bir yon edi” deganda o‘zi niyat qilgan tavhid martabasi – salaflar davrasiga qabul qilinganini nazarda tutadi. Navoiyning keyingi baytlardagi Haq murodini bergani borasidagi ta’kidlari ham “Xamsa”ning muvaffaqiyatli tugallanishiga bilvosita aloqador bo‘lib, aslida, Navoiyning ikkinchi niyati – “Xamsa”sining ustozlar tomonidan e’tirof etilgani va o‘zining xamsanavislar halqasiga qabul qilingani haqidagi faxriyadir²⁹.

Navoiyning o‘zi tomonidan “Xamsa” ichida yozib qoldirilgan bir necha qaydlar ham mazkur talqin asosli ekanligini tasdiqlaydi. Jumladan, “Hayrat ul-abror”ning Jomiy vasfiga bag‘ishlangan bobida ana shunday qaydlar mavjud:

Ul ikiga fотиha o‘qub so‘rub,
Fotiha bu biri manga yetkurub.
Botin ila qilmasa ul ikki rad,
Zohir ila bu biri qilsa madad.
Menki talab yo‘lida qo‘ydum qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam,
Yo‘ldasa, bu yo‘lda Nizomiy yo‘lum,
Qo‘ldasa, Xusrav bila Jomiy qo‘lum...
Eltsa joh ahlig‘a mufliis panoh,
Topsa qabul ul ham o‘lur ahli joh (H.A. 55-56).

Navoiy dastlabki baytda “ul ikiga” deganda Nizomiy va

28 Saddi Iskandariy, – B. 422.

29 Mazkur lavha haqida yana boshqa qarashlar ham bor. Qarang: Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б. 51– 54.



Xusravni nazarda tutadi va ularning ruhiga fотиha o‘qisam, bu biri, ya’ni Jomiy meni duo qilsa, “Xamsa” yoza olishi mumkinligini aytadi. Keyingi baytda Nizomiy va Xusrav botinan rad qilmasa, Jomiy zohiran madad qilsa, bu ish amalga oshishini bildiradi. Shubhasiz, bu baytdagi “rad qilmasa” fe’li basmaladagi “ahli rad” tushunchasi bilan aloqador. Demak, Navoiy ahli rad yoki maqsad manziliga yeta olmaganlar deganda, darhaqiqat, xamsa yoza olmaganlarni nazarda tutadi. Chunki bu toifani Nizomiy va Xusrav botinan rad etadi.

Uchinchi baytda ham muhim fikr mavjud, ya’ni Navoiy “Menki *talab yo’lida* qo’y dum qadam” deyish bilan xamsanavislikni – yo’lga o’xshatadi. Keyingi baytda ham ushbu fikrni davom ettirib bu yo’lda meni Nizomiy yo’ldasa (yo’llasa), Xusrav va Jomiy qo’ldasa (qo’llasa) deb umid qilaman deydi. Oxirgi baytda esa Navoiy o’zini *mufliis* (bechora), xamsanavis ustozlarini esa *ahli joh* (martaba sohiblari, bu o’rinda aynan xamsa yoza olganlar) deb ataydi. O’zini nazarda tutib aytadiki, agar mufliis qabul topsa (maqbul bo’lsa), u ham ahli johlardan bo’ladi. Shubhasiz, bu o’rindagi *qabul topmoq* birikmasi ham basmaladagi *ahli qabul* tushunchasi bilan aloqador bo’lib, xamsa yoza olmoq, xamsanavis sifatida e’tirof qozonmoq, xamsanavislar safiga qabul qilinmoq ma’nolarini ifodalaydi.

Navoiy “Xamsa”sidagi quyidagi qaydlar ham basmala xamsanavislik an’anasi haqida ekanligini tasdiqlaydi: “... ham javohir piri daryozamir ravshan ko’ngliga yer tutqonning bayoni va ham maxozin shuaroyi she’riy sarir muqaddasa arvohig’a *qabul tushganning tibyoni*”³⁰. Bu “Saddi Iskandariy” dostonining oxirgi bobi, ya’ni salafilar bilan g’aybiy uchrashuv tasvirlangan bobining sarlavhasidan iqtibos. Navoiy *javohir, maxozin (xazinalar)* deya o’z “Xamsa”sini nazarda tutmoqda va beshligi ustozlariga *qabul tushganini* qayd etmoqda. So’nggi bob sarlavhasidagi *qabul tushgani* birikmasi, “Xamsa”ning

30 Saddi Iskandariy, – B. 408.



fotiha bobida aks etgan *ahli qabul* va *ahli rad* haqidagi fikrlar bilan aloqador bo‘lib, Navoiy o‘zining yakunda ahli qabul tomonida bo‘lganini ta’kidlamogda.

Ifoda bilan aloqador yana bir e’tiborli jihat shundaki, “Hayrat ul-abror” dostoni, ya’ni “Xamsa”ning fotiha bobi “Bismillohir rahmonir rohim / Rishtag‘a chekti necha durri yatim” (Ma’nosi: “*Bismillahir rohmanir rohim*” (oyati) bir qancha qimmatbaho durlarni ipga tizdi) bayti bilan boshlansa, “Saddi Iskandariy” dostoni, ya’ni “Xamsa” xotima bobining sarlavhasi quyidagicha boshlanadi: “Bu maodin javohirin ehtimom bila nazm silkiga tortmoqning taqriri...”³¹. “Xamsa” fotihasining “bir qancha qimmatbaho durni ipga tizish” tarzidagi ifoda bilan boshlanib, xotimasining “ma’danlar javharlarini diqqat bilan nazm qatorlariga terish” tarzidagi tasvir bilan yakunlanishi, bir qarashda, tasodifdek tuyilishi mumkin, ammo bunday holat shoir ijodida takrorlanishi inobatga olinsa, bu kabi mutanosibliklar ijod qilish – Navoiy tasvir uslubiga xos xususiyat ekani anglashiladi.

“Xamsa”ning xotima bobida yuqoridagi qarashlarimizni ochiq tasdiqlovchi yana bir dalil bor. G‘aybiy lavhada Nizomiy “Xamsa”ni muvaffaqiyatli yakunlagani bilan Navoiyni muborakbod etar ekan Haq unga shunday ma’nolarni nasib qilgani, lekin er kishida farosat bo‘lsa, bunday yutuqning ikki sababi bo‘lishini aytadi:

Biri ulki tuttung tariqi niyoz,
Qabul ayladilar seni ahli roz.

Ishingga qilib sa’y rag‘bat bila,
Madad qildilar borcha himmat bila.

Yana ulki fazl ahli harne qilur,
Urar lof-u ishni murabbiy qilur³².

31 Saddi Iskandariy, – B. 408.

32 Алишер Навоий. Садди Исқандарий. МАТ. 20 томлик. 11-том. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 577.



Ya’ni birinchisi shuki, Navoiy – sen niyoz (o‘tinish, himmat umid qilish) yo‘lini tutding, shu bois ahli roz (haqiqat sirlariga yetishganlar) seni qabul ayladilar.

E'tibor bering

Bu o‘rinda “ahli roz seni qabul ayladilar” deganda g‘aybiy lavha ishtirokchilari bo‘lgan ulug‘ masnaviynavislar, xamsanavislar Navoiyni o‘z davrasiga qabul qilgani nazarda tutilgan. Navoiy bu ulug‘ shoirlarni bobning boshqa bir o‘rnida “zumrayi ma’naviy” (ma’no ahli, irfon ahli), “ahli savob” deb ham ataydi va ular “Xamsa”ni yakunlashda muntazam madad berib turishganini ta’kidlaydi. Navoiyning yuqoridagi baytlarda “ahli roz seni doimo qo‘llab quvvatladi” deyishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Haqiqat ahli rag‘bat ko‘rsatib, himmat bilan senga madad qildilar. Ikkinchisi shuki, fazilat ahli har qanday ish qilmasin, aslida, u ishning yuzaga chiqishiga murabbiy (homiy, tarbiya qiluvchi; bu yerda Husayn Boyqaro nazarda tutilmoqda) sabab bo‘ladi. Agar yuqoridagi baytlarda ahli roz deyilganda ulug‘ xamsanavislar, masnaviynavislar nazarda tutilganidan kelib chiqilsa (chunki ahli roz va ularning doim madad berib turgani haqidagi qaydlar, bobning umumiy mazmuni shunday deyishga imkon beradi), Navoiyning “qabul bo‘lishi” ham ulug‘ xamsanavislar arvofiga, ham ularning safiga qabul bo‘lish tarzida tushinilishi kerak bo‘ladi.

Xullas, “Xamsa”ning xotimasi basmalada Navoiy tomonidan **yo‘l yomon-u yaxshisidan yema g‘am, bismilloh degil-u qo‘ygil qadam** deya “Xamsa” yozish borasida qilingan tavakkul taviq tufayli xayrli yakun topib, shoir yo‘lni muvaffaqiyatli bosib o‘tgani, salafariga munosib raqobat ko‘rsatib, o‘z maqsadi – “Xamsa”ni mukammal ado etgani va xamsanavislar safiga qabul qilinganini tasdiqlaydi. Navoiy yo‘l



oxirida, xamsanavislik an'anasi nuqtayi nazaridan, ahli qabul tomonida bo'lgan.

Savol va topshiriqlar

I. Konseptual savollar

1. Basmala, odatda, har qanday ishning boshida fayz-u baraka uchun aytiladi. Navoiy esa uni "Xamsa" uchun "ochqich" (programma) qilib oldi. Nima uchun shoir basmalani shunchaki duo emas, balki "xamsanavislik yo'lining xaritasi" sifatida talqin qildi?
2. Ma'ruzada bir xil harf (masalan, *Sin* yoki *Mim*) ikki xil toifa uchun turlicha ko'rinishi aytiladi. Bu yerda Navoiyning "**Go'zallik (yoki dahshat) ko'ruvchining ko'zida (qalbidagi iymonida)**" degan falsafiy qarashi qanday namoyon bo'ladi? Harfning shakli o'zgarmaydi, ammo nega idroki o'zgaradi?
3. Navoiy basmalani "vahdat xazinasiga olib boruvchi yo'l" deb ataydi. Ushbu ma'ruza matniga tayanib ayting-chi, "Xamsa" muallifi uchun "Vahdat" (birlik) faqat Ollohga yetishishmi yoki Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy kabi buyuk xamsanavislar bilan "ma'naviy bir halqaga" birlashishni ham anglatadimi?
4. "Hayrat ul-abror"ning ilk baytidagi "ipga tizilgan durlar" obrazi bilan "Saddi Iskandariy"ning so'nggi bobidagi "nazm silkiga tortilgan javohirlar" o'rtasidagi konseptual bog'liqlikni qanday tushunasiz? Navoiy nega 5 ta dostonni yozib bo'lgach, yana ilk bobdagi o'xshatishlariga qaytdi?
5. Yusuf Xos Hojibning "*Bayat ati birla so'zug bashladim*" satrini an'anaviy basmalaning tarjimai emas, balki "turkona tafakkur mahsuli" sifatida baholash mumkinmi?



II. Ijodiy topshiriqlar

1-topshiriq. Matndagi jadvaldan foydalanib, 3 ta harfni (masalan: *Sod, Mim, Nun*) tanlang. Ushbu harflarning shakli qanday qilib bir vaqtning o‘zida ham “azob quroli” (ahli rad uchun), ham “najot ramzi” (ahli qabul uchun) bo‘lishi mumkinligini ularning grafik tuzilishi (grafemasi) asosida asoslab bering.

2-topshiriq. Navoiyning Jomiy, Nizomiy va Xusrav Dehlaviydan “madad va qabul” so‘rashi asosida, o‘rta asrlar adabiyotidagi “Ustoz-shogird” an‘anasining konseptual sxemasini chizing. Unda quyidagi savolga javob bering: *Nima uchun shogirdning muvaffaqiyati faqat uning iste’dodiga emas, balki o‘tmishdagi “arvohlar”ning qabuliga (rizoligiga) bog‘liq deb hisoblangan?*

3-topshiriq. Nizomiyning “*Bismilloh... hast kalidi dari ganji hakim*” bayti bilan Navoiyning “*Bismilloh... rishtag‘a chekti necha durri yatim*” baytini qiyoslang.

- Nizomiyda basmala –**kalit** (ochish vositasi).
- Navoiyda basmala – **rishta** (bog‘lovchi, tizuvchi vosita).
- Ushbu ikki metafora mualliflarning ijodiy uslubi va “Xamsa”ga yondashuvi haqida nimalarni anglatadi?

4-topshiriq. “*Ahli rad va ahli qabul: diniy aqidadan adabiy talqinga*” mavzusida qisqa esse yozing. Esseda Navoiyning ushbu tushunchalarni adabiyot maydoniga olib kirgani va “yomon xamsanavis” (ahli rad) hamda “iste’dodli xamsanavis” (ahli qabul) o‘rtasidagi farqni qanday ko‘rsatganini tahlil qiling.

5-topshiriq. Ijodiy loyiha: Agar siz bugungi kunda biror ulkan badiiy asar (masalan, romanlar turkumi) boshlasangiz, Navoiyning “Basmala bobi” kabi “Dasturiy muqaddima”ni qanday tamoyillar asosida qurgan bo‘lardingiz? Navoiyning qaysi “harfiy” yoki “ramziy” usulidan foydalangan bo‘lardingiz? (taqdimot).



Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. Т. 7. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Рустамов А. “Ҳайрат ул-аброр”даги биринчи сарлавҳанинг шарҳи. / “Шарқ юлдузи” журнали, 1985, № 11. – Б. 135 – 152.
3. Рустамий А. Бисмиллоҳнинг маъноси. – Тошкент: Чўлпон, 1993.
4. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Т., 1999.
5. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005.
6. Давлатов О. Алишер Навоий шеърлятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Филол.фан. буйича фал.док.дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017.
7. Navoiyshunoslik. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Sh.Sirojiddinov va boshqalar. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
8. A‘zam Abdulla. Abrorlar hayrati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.



III

MAVZU



TAVHID HAMD TALQINI

Reja:

1. Tavhid hamdning asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni.
2. Tavhid hamdning mazmun-mohiyati.
3. Vahdat g‘oyasi talqinida Navoiyning badiiy mahorati.

Tayanch tushunchalar:

Alisher Navoiy, abror, hayrat, ijodiy niyat, irfoniy mohiyat, tariqi abror





“Hayrat ul-abror” dostoni an’anaga muvofiq tavhid hamd bilan boshlanadi. Ahmad Taroziyning qayd etishicha, qaysi janrda bo’lishidan qat’iy nazar, “agar Tengri azz ava jallag’a hamd aytsalar, oni tavhid derlar”³³.

Alisher Navoiy bu bobda mavzu taqozosiga ko’ra, asosan, Allohning yaratuvchiligi, bir-u borligi, vohidligi masalasi tasviriga e’tibor qaratadi. Shoirning qayd etishicha, yaxshi boqilsa olamda Xoliqning bir-u borligiga ko’plab dalillar mavjud:

Vahdati zotig’a quyoshdek tonuq,
Zarradin afzun-u quyoshdin yoruq (*H.A. 15*).

Ya’ni, (Alloh) zotining yagona ekanligini tasdiqlovchi quyoshdek yorqin dalillar (maxluqot orasida) zarradan ko’p va oftobdan yorug’.

Navoiy shundan so’ng mazkur tezisni badiiy sharhlashga kirishadi. Dastlab Alloh tunni va yuksak samoni yaratgani, unda ko’plab samoviy jismlarni paydo qilgani aytiladi. Lojuvard falak Haqning xoliqlik qudrati tufayli nardaning ikki tabaqasiga o’xshash bo’lgani, oy-u quyosh esa undagi ikki tosh ekani, nardaning taxtasi munaqqash – naqshinkor bo’lib, uning har ikki tabaqasida burjlardan (o’n ikkita bo’ladi) ikki oltitalik joy hozirlangani, taxta yulduzlar tufayli sadafli bo’lgani-yu nardaning donalari tun-u kundek (oq-qora) qilingani, olamda nimaiki yaxshi-yomon ish sodir bo’lsa, barchasi mana shu nardadan ma’lum bo’lishi, uni esa qazo va qadar kabi ikki raqib o’ynashi obrazli tasvirlanadi.

Shoir bundan keyin Xoliq tongning yuzini ochgani va bu yuzga tunni sunbul (soch) qilgani, tongning yuzi olamga kofur (yorug’lik) taratgan bo’lsa, qora sochi mushk sepgani, shu tariqa kun-u tun oq-u qorani hamma yoqqa yoygani tasvirlanadi.

33 Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – Б. 32.



Navoiy shu tarzda falak va undagi samoviy jismlar, tun-u kunning yaratilganini obrazli tasvirlagach, tori dimog‘ – bosh (miya)ning qorong‘u xonasi yaratilgani, bu hujrada aqldan chiroq yoqilgani, bu chiroqqa inoyat ipidan rishta qilinib, shu‘lasi hidoyat nuri bo‘lganini bayon qiladi.

Shoirning qayd etishicha, ko‘ngil maskani aql shamining ana o‘sha hidoyatli nuridan fayz oladi, ammo Alloh bu shu‘lani ishq shamoli tufayli o‘chadigan qilib qo‘ygan. Ishq shamolini shiddatli qilib, aql kapasini esa u tufayli chilparchin bo‘ladigan qilgan. Alloh ishqni zuhd-u vara xirmonini ham, sabr-u qaror maskanini ham sovurib yuboradigan qilib yaratgan. Haq taolo shu bilan birga vasl bulutini yomg‘irdek qilib ishq o‘tiga tamkin, osoyishtalik berib turadi.

Yaratuvchi husn quyoshini olamni kuydiruvchi qilib yaratgan, uni quyosh emas, jannat bog‘i desa ham bo‘ladi, chunki uning jilvasi jon gulshaniga oroyish va mahzun ko‘ngilga osoyish beradi. Faqat bu husnning zotida lutf-u safo hamda vafoni mujassam qilmagan, shu bois u vafo ahlining joniga jafo qiladi. Ularni hijron biyoboniga tashlab, yeli samum – kishini holsiz qiluvchi balo garmseli bilan sinaydi, so‘ng hajr o‘ti bilan kuydiradi. Haq kimni hijron o‘ti bilan kuydirsa, haligi samum (halok qiluvchi shamol) kuyganlardan qolgan kulni ko‘kka sovuradi. Baloning haroratli tafti kimni kul aylasa, uning qalb ko‘zgusi jilo topadi:

Kimni kul aylab bu samumi balo,

Dard-u balo ko‘zgusi topib jalo.

Chun solib ul ko‘zgu aro tob-u nur,

Ishq yuziga berib andin zuhur (*H.A. 18*).

Ya’ni hijron o‘ti, ishq tafti kimni kul aylasa, uning qalb ko‘zgusi ravshanlashadi hamda Haq u ko‘zguga jilvakorlik, nur baxsh etadi, shu tufayli ishq oshiqning yuzida jilvalanadi.

Xudo Yer sharini o‘rtada sokin qilib, qolgan falaklarni va



sayyorlarni uning atrofida aylanuvchi qilib yaratgan. Olamdagi barcha narsaning mavjudligi Uning lutfi tufayli bo‘lib, agar qahr qilsa, barchasi yo‘q bo‘ladi qoladi.

Muhim

Bunday o‘rinlar Alisher Navoiy olamning tuzilishi borasida geosentrik nazariya tarafdorlaridan bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xullas, Navoiy shu tariqa Alloh yaratilish halqasi va zanjirini bir-biriga bog‘lab qo‘ygani, ular silsilali tarzda alaloqibat Haqning o‘ziga borib ulanishini badiiy tasvirleydi. Hamma tasvir va talqinlarini barcha yaratiq Uning ixtiyori va izmida degan qarashga olib kelib bog‘laydi. Bu – tavhid g‘oyasining ayni o‘zi bo‘lib, shoir bobda boshdan oyoq shu mazmundagi qarashlarni obrazli ifodalaydi.

Savol va topshiriqlar

I. Konseptual savollar

1. Navoiy koinotni narda taxtasiga, oy va quyoshni toshlarga, qazo va qadarni esa raqib o‘yinchilarga o‘xshatadi. Ushbu obrazli tasvir orqali shoir insonning borliqdagi o‘rni va taqdirning o‘zgarasligi (determinizm) haqida qanday xulosaga keladi?
2. Matnda aql “hidoyat nuri” va “chiroq” deb ataladi, biroq ishq shamoli uni o‘chirib, aqlni chilparchin qilishi aytiladi. Nima uchun Yaratuvchi o‘zi inson miyasiga joylagan eng oliy ne‘matni (aqlni) yana O‘zi yaratgan boshqa bir kuch (ishq) orqali inqirozga uchratadi? Bu yerdagi mantiq nima?
3. *“Baloning haroratli tafti kimni kul aylasa, uning qalb*



ko‘zgusi jilo topadi” baytidagi paradoksni izohlang. Qanday qilib moddiy yo‘q bo‘lish (kul bo‘lish) ma’naviy poklanishga (jiloga) sabab bo‘lishi mumkin? Bu o‘rinda tasvuffdagi “fano” tushunchasi qanday namoyon bo‘lgan?

4. Navoiy Yaratuvchi tomonidan berilgan go‘zallik (husn quyoshi)ning zotida nima uchun “vafo” mujassam qilinmaganligini aytadi? Go‘zallikning vafosizligi orqali oshiqning ruhan chiniqishi va hijron biyobonida sinalishi o‘rtasida qanday mantiqiy bog‘liqlik bor?

II. Amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. Ma’ruza matniga tayanib, inson komillikka erishishining Navoiyga xos “bosqichlar zanjiri”ni quyidagi sxema ko‘rinishida to‘ldiring:

- *1-bosqich:* Dimog‘da aql chirog‘ining yonishi (bilish).
- *2-bosqich:* Ishq shamolining aqlni mahv etishi (his qilish).
- *3-bosqich:* Hijron va balo samumi (sinov).
- *4-bosqich:* Qalb ko‘zgusining jilo topishi (natija)

Ushbu bosqichlarning har biri nima uchun zarurligini qisqacha izohlang.

2-topshiriq. Ahmad Tarozining ta’rifi (“Tengri azz va jallag‘a hamd aytsalar, oni tavhid derlar”) bilan Navoiyning badiiy talqini solishtiring. Navoiyning tavhidi nima uchun shunchaki “shukrona” emas, balki “borliqning falsafiy manzarasi”dek ko‘rinadi? Fikringizni matndagi badiiy tashbihlar misolida asoslang.

3-topshiriq. *“Aql chirog‘i va ishq shamoli: Navoiy falsafasida muvozanat va fano”* mavzusida kichik esse yozing. Esseda nima uchun inson Haqqa yetishishi uchun aqldan voz kechib, ishq olovida “kul” bo‘lishi kerakligi masalasini ochib bering.



Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. Т. 7. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Муҳиддинов М. Қўнғил ҳайратлари. – Тошкент: Tamaddun, 2021.
3. Гаффорова З. Алишер Навоий ҳамд ва наът ғазалларининг ғоявий-бадиий таҳлили. Фил. фан. бўйича PhD дисс. – Тошкент, 2018.
4. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. – Б. Бухоро, 1994.
5. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил). Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Т., 1999.
6. Давлатов О. Алишер Навоий шеърлятида Қуръон оятлари ва ҳадисларининг бадиий талқини. Филол.фан. бўйича фал.док.дисс. ... автореф. – Самарқанд, 2017.
7. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр: танқидий матн, шарҳ. Нашрга тайёрловчи А.Малик. – Тошкент: Tavfiqnashr, 2024.
8. Исмоилов И. Навоий ва Низомий исқандарномаларидаги тавҳид боблар қиёси. // Навоий ва ХХІ аср. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2018. № 3. – Б. 313 – 315.
9. A'zam Abdulla. Abrorlar hayrati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.



IV MAVZU




TO‘RT MUNOJOT SHARHI

Reja:

1. Munojot va uning asar debochasida tutgan o‘rni.
2. To‘rt munojot – yaxlit badiiy sistema sifatida.
3. Karam tushunchasi va uning badiiy talqini.

Tayanch tushunchalar:

Alisher Navoiy, munojot, hamd, to‘rt munojot, afv, karam, najot, badiiy talqin





“Hayrat ul-abror” debochasining III, IV, V va VI boblarida munojot bitilgan. Ahmad Taroziyning qayd etishicha, qaysi janrda bo‘lishidan qat’iy nazar, “agar Tengri hazratinda tazarru’ qilsalar, munojot o‘qurlar”³⁴.

“Avvalgi munojot”da Haqning avvaliyati, ya’ni hali biror yaratilgan yuzaga kelmagan zamondagi mavjudligi (huviyati), jismlarning yo‘qdan bor qilinish jarayoni (sifati), jumladan, koinotning zuhr etishi xususida so‘z boradi.

Navoiy Alloh azaliy va abadiy ekanligini ta’kidlash asnosida shunday yozadi:

Muhim

Avval o‘zung, oxir-u mobayn o‘zung,
Borchag‘a xoliq, borig‘a ayn o‘zung (H.A. 19).

Ya’ni, avval ham, o‘rta ham, oxir ham O‘zingsan, Sen barcha narsalarning yaratuvchisi va mohiyatidan.

Navoiy Haqning avvaliyotini tasvirlar ekan u kezlarda g‘ayb ko‘zgusi husni uchun g‘ayb ko‘zgusi mazhar bo‘lgani, nozir ham, manzur ham, ishqiy-yu husniga mag‘rur ham yolg‘iz O‘zi bo‘lgani, birlik mavjud, ko‘plik esa nomavjud bo‘lganini aytadi.

Shoir shundan so‘ng zot bahri mavjlanib, Haqning jamoli jilvalana boshlaganini tasvirlashga kirishadi. Shoirning qayd etishicha, Haq o‘z husnining kamoli mazharlar (yaratilgan)da zuhr etishini istadi:

Jilvayi husnungg‘a chu yo‘q erdi had,
Ko‘zgu kerak bo‘ldi anga beadam.
Ochti bu gulshanniki rangin erur,
Har gul anga o‘yinayi chin erur (H.A. 20).

34 Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазиана, 1996. – Б. 32.



Ya'ni, husnining jilvasi cheksiz bo'lgani bois Unga beaded ko'zgu kerak bo'ldi, shu sababli bu rangin gulshan (olam)ni yaratdi va undagi har gul (yaratiq) oynayi chin (chin oynasi yoxud porloq ko'zgu) bo'ldi.

Navoiy bu orqali kishi yaxshi boqsa, yaratilarning barchasi Haq jamolini jilvalantiruvchi ko'zgu ekanini idrok etadi, olam va undagi maxluqot Uning husni jilvasi zuhr etishi uchun mazhar (akslantiruvchi) qilib yaratilganini anglaydi, degan qarashni badiiy ifodalaydi. To'qqiz falak, undagi yulduzlar, sayyorlar, tog'-u daryolarning yaratilishini shu mantiq asosida badiiy sharhlaydi. Shoir olamning yaratilish sababi, mavjudligi va mohiyatni tushintirar ekan bularning barchasidan maqsad inson bo'lganini aytadi:

Muncha g'aroyibki misol aylading,
Borchani mir'oti jamol aylading.
Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi (*H.A. 21*).

Yodda tuting

Navoiyning qayd etishicha, Alloh insonni mukammal yaratib, sirlarining mahrami qilgan, O'z xazinasi (sirlari) dan ko'ngliga muayyan qism joylab, jismini u xazina (ko'ngil) uchun tilsim qilib yaratgan. O'z ma'rifatining orifi (bilimdoni) qilgan. Uning ilmiga boshqalarni ergashuvchi qilib, inson zoti tufayli olamni yaratgan.

Shoir bob so'ngidagi uch baytni hasbi hol tarzida yozadi. Unda xazina (ilohiy sirlar yoxud ma'rifat)ga odam zotidan boshqa hech kim mahram emas ekan Navoiyni avval odam degan maqomga munosib qil, toki bu xazinaga u ham mahram bo'la olsin, deydi.

Xullas, Navoiy bu bobda, asosan, Allohning huviyati (bir-u borligi), azaliy va abadiyligi, olamlarning yaratilish sababi va



bu jarayonning mantig'ida Haqning o'z husnini namoyon etish istagi yotishi, mazkur istak ijrosi uchun jismlarni mazhar (akslantiruvchi) sifatida yaratgani, biroq barcha maxluqot inson tufayli yaratilgani, chunki Allohning yaratishdan maqsadi inson bo'lgani, shu ma'noda inson Haq sifatлари zuhr etgan mazhar ekani, muxtasar aytganda, barcha yaratilganlar Haq jamoli jilvasini akslantiruvchi ko'zgular ekani to'g'risida so'z boradi. Shoir bu boradagi qarashlarini *oyna, gul, gulshan, quyosh, dengiz, xazina* singari majoziy timsollar vositasida badiiy tasvirlab beradi. Olam qanday maqsad, mantiq va tarzda yaratilgani haqidagi haqiqatlarni badiiy ifodalaydi.

“Ikkinchi munajat”da “maxluqot zebolari” – ashyolarning, yer-u ko'kning yaratilishida Alloh san'atkorlik ko'rsatgani, lekin xohlasa ularni to'zg'itib yuborishi, natijada qiyomat qoyim bo'lishi va bundan Haq dargohiga foyda ham, zarar ham yetmasligi haqidagi haqiqatlar badiiy tasvirlanadi.

Munchaki aflok sabuk sang erur,
Yo kurayi xok kuhan lang erur.
Sendin alar junbish-u oromi ham,
Uylaki, ijodi ham, e'domi ham (*H.A. 22*).

Shoir shundan so'ng ko'k osmon, falak toqining yaratilgani, vohidi dono (Alloh) bu jarayonda aql bovar qilmas me'morlik ko'rsatgani, shu bois aql muhandislari uni tushunib yetishdan ojiz qolishganini aytadi. Biroq Alloh yaratganlariga xalal yetishini istasa va qahr qilgudek bo'lsa, ko'k bir etak kuldek sovrilib, osmon-u falak ostin-ustin bo'lib ketishi, fano quyuni esgan chog' faqat Tangri qolib, boshqa hech narsa qolmasligini samoviy jismlar bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Ammo bundan Haqning azamatiga foyda yoki ziyon yo'q:

Arz (ارض) u falak yo'qidin-u boridin,
Borchaning ixfosi-yu izhoridin.
Ne azamat ichra anga sud o'lub,
Ne jabarutig'a ziyonbud o'lub (*H.A. 24*).